



KICHIK BIZNES DA LOYIHALARNI SAMARALI BOSHQARISH VOSITALARI

Aziza Qurbonboyeva Umid qizi

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi o'qituvchisi

Qodirov Tuyg'un Uzoqovich

Iqtisod fanlari nomzodi

Anotatsiya So'nggi o'tgan yillar davomida kichik biznes mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'rinnegallab, yangi ish o'rinnlari yaratish, aholining turmush darajasini oshirish va iste'mol bozorini to'ldirishda asosiy omillardan biriga aylandi. Mazkur tezisda kichik biznes subyektlarida loyiha boshqaruvining zamonaviy yondashuvlari, texnologik vositalari va boshqaruuv tizimlari tahlil qilinadi. Shuningdek, davlat tomonidan yaratilgan qulayliklar, soliq imtiyozlari va kreditlash tizimining bu boradagi ahamiyati yoritiladi. Keltirilgan ilmiy mulohazalar kichik tadbirkorlar uchun amaliy ahamiyat kasb etadi va ularni samarali faoliyatga yo'naltirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, loyiha boshqaruvi, samarali boshqaruuv, iqtisodiy rivojlanish, tadbirkorlik, soliq imtiyozlari, kreditlash, innovatsiya, davlat qo'llab-quvvatlashi.



Аннотация В последние годы малый бизнес занял важное место в экономическом развитии нашей страны, став одним из ключевых факторов создания новых рабочих мест, повышения уровня жизни населения и наполнения потребительского рынка. В данной тезисной работе анализируются современные подходы к управлению проектами, технологические инструменты и системы управления в субъектах малого бизнеса. Кроме того, освещается значение создаваемых государством условий, налоговых льгот и системы кредитования. Представленные научные рассуждения имеют практическое значение для предпринимателей и направлены на повышение эффективности их деятельности.

Ключевые слова: малый бизнес, управление проектами, эффективное управление, экономическое развитие, предпринимательство, налоговые льготы, кредитование, инновации, государственная поддержка.



Abstract In recent years, small business has played a crucial role in the economic development of our country, becoming one of the main drivers in job creation, improving living standards, and supplying the consumer market. This thesis analyzes modern approaches to project management, technological tools, and management systems used by small business entities. It also highlights the importance of state-created facilities, tax incentives, and the credit system in this context. The presented academic insights hold practical value for entrepreneurs and aim to guide them toward more effective operations.



Keywords: *small business, project management, effective management, economic development, entrepreneurship, tax incentives, crediting, innovation, state support.*

Kirish

So‘nggi o‘tgan yillarda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy siyosatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlatning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta‘minlovchi, yangi ish o‘rnlari yaratish, aholini band qilish, innovatsion g‘oyalarni joriy etish va iste’mol bozorini tezkor to‘ldirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, bozor talablariga mos ravishda tezkor moslashuvchanlik, past xarajatlar evaziga yuqori natijalarga erishish imkoniyati, hamda investitsiyalarni nisbatan kichik miqyosda talab qilishi bilan kichik biznes zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotda o‘ziga xos o‘ringa ega. Mazkur tadqiqotda kichik biznesda loyihalarni boshqarishning zamonaviy vositalari, ularning ahamiyati va qo‘llanilish samaradorligi ko‘rib chiqiladi, shuningdek, milliy tajriba va xalqaro ilg‘or amaliyotlar asosida ilmiy xulosalar beriladi.

Kichik biznes iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi va uning samarali boshqaruvi, ayniqsa loyihalarni boshqarish tizimi bugungi kunda dolzarb masalaga aylangan. So‘nggi yillarda mamlakatimizda kichik biznes subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratilib, loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan normativ-huquqiy baza, moliyaviy mexanizmlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etildi.

Mazkur tezisning asosiy maqsadi — kichik biznes subyektlarida loyihalarni samarali boshqarish vositalarini tahlil qilish, ularning amaliy qo‘llanilishi, iqtisodiy samaradorligini aniqlash va mavjud imkoniyatlar, davlat tomonidan yaratilgan qulayliklar hamda zamonaviy boshqaruv texnologiyalarining kichik tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o‘rnini yoritishdan iborat. Shu bilan birga, kichik biznesda loyiha boshqaruvi bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish orqali bu yo‘nalishdagi boshqaruv ko‘nikmalarini mustahkamlash ham maqsad qilib qo‘yilgan.

Kichik biznesda loyiha boshqaruvi bu – maqsadlarga erishish uchun rejalashtirish, muvofiqlashtirish, nazorat va baholashni o‘z ichiga oluvchi murakkab tizimdir. Bu jarayonlar biznes subyekti samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda kichik biznesda samarali boshqaruv vositalariga loyiha rejalashtirish dasturlari (Gantt diagrammasi, PERT tahlili, SWOT tahlili), raqamli tizimlar (ERP, CRM), moliyaviy nazorat mexanizmlari, risklarni boshqarish vositalari va innovatsion yondashuvlar kiradi. Ayniqsa, yangi texnologiyalar va “yashil iqtisodiyot” elementlarini joriy etish biznesning raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Davlat tomonidan kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar, xususan, soliq imtiyozlari, soddalashtirilgan ruxsatnomalar, uzoq muddatli kreditlar va tashqi bozorlarga chiqishga ko‘maklashuvchi dasturlar, ushbu sektorning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.



Mazkur tadqiqot ishining predmeti kichik biznes subyektlari faoliyatida loyihalarni samarali boshqarishga oid nazariy asoslar, amaliy vositalar, innovatsion yondashuvlar hamda zamonaviy boshqaruvi texnologiyalari hisoblanadi. Xususan, kichik biznes korxonalarining resurslardan oqilona foydalanishi, risklarni boshqarish, vaqt va xaratatlarni rejalashtirish, loyihaning har bir bosqichini monitoring qilish mexanizmlari ushbu ishning asosiy o'rganish ob'ekti sifatida maydonga chiqadi.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekiston hududida faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tanlanadi. Ayniqsa, ular tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalarda qo'llanilayotgan boshqaruvi usullari, bu usullarning samaradorlik darajasi, davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlar (soliq imtiyozlari, kreditlar, infratuzilma yengilliklari) va ushbu omillarning loyihalar muvaffaqiyatiga ta'siri alohida e'tibor bilan tahlil qilinadi. 2011-yilning "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinishi, I.A. Karimovning "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir" nomli ma'rzasida kichik tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanganligi bu boradagi muhim qadamlardan biridir. Biroq, kichik biznesda loyiha boshqaruvi bilan bog'liq qator muammolar ham mavjud bo'lib, ular jumlasiga tadbirkorlik ko'nikmalarining yetishmasligi, raqamli vositalardan to'liq foydalanilmasligi, malakali kadrlar tanqisligi va moliyalashtirishda uchraydigan to'siqlar kiradi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun tadbirkorlik madaniyatini yuksaltirish, o'quv kurslari tashkil etish, startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash, biznes-inkubatorlar va innovatsion markazlar faoliyatini kuchaytirish zarur. Kichik biznesda loyihalarni samarali boshqarish vositalarini joriy etish orqali nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash, balki aholining turmush darajasini oshirish, yangi ish o'rinnlarini yaratish va jamiyatning innovatsion rivojlanishiga erishish mumkin.

Tadqiqot jarayonida kichik biznes subyektlari uchun qulay boshqaruvi texnologiyalarini joriy etish, loyiha resurslarini to'g'ri taqsimlash, davlat tomonidan yaratilgan imtiyozlardan samarali foydalanish orqali ularning faoliyatini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligi aniqlandi. Loyiha boshqaruvi vositalaridan oqilona foydalanish kichik tadbirkorlik subyektlarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida, yangi ish o'rinnlarini yaratishda, eksport salohiyatini oshirishda va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'na. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 180 b.
2. Raximov S., Qodirov A. Kichik biznes va loyiha boshqaruvi asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 198 b.
3. G'ulomov S.S., Karimov S.S. Biz. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019. – 274 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yilida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturi". — T.: Adolat, 2011.
5. Maxmudov M. "Tadbirkorlik asoslari". O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2020.